

UDK: 37.013.42:502/504

EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHGA ZAMONAVIY YONDOSHUV EHTIYOJI: XORIJ TAJRIBASI TAHLILI

Muratova Dildora Abdumanapovna

Sarbon universiteti professor v.b, (DSc)

muratovadildora959@gmail.com

+99890 9681159

ANNOTATSIYA

Maqolada zamonaviy jamiyatda ekologik ong va madaniyatning shakllanish jarayonlari, ekologik madaniyatni shakllantirishda yangi yondashuvlarni joriy etish, zamonaviy usul va vositalardan foydalanish, hamda global va mahalliy darajadagi harakatlarni muvofiqlashtirishni ahamiyatini asoslab bergan. Maqolada ekologik madaniyatni rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlari va istiqbollari belgilab berilgan.

Kalit soʻzlar: ekologik madaniyat, shakllanish, zamonaviy yondoshuv, dunyo, atrof-muhit, globallashuv, ekologik inqiroz, texnologiya, inson va tabiat.

THE NEED FOR A MODERN APPROACH TO THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE: ANALYSIS OF FOREIGN EXPERIENCE

ABSTRACT

The article substantiates the processes of forming ecological awareness and culture in modern society, the introduction of new approaches to the development of ecological culture, the use of modern methods and tools, as well as the importance of coordinating actions at global and local levels. The article also identifies modern mechanisms and prospects for the development of ecological culture.

Key words: ecological culture, formation, modern approach, world, environment, globalization, ecological crisis, technology, human and nature.

НЕОБХОДИМОСТЬ СОВРЕМЕННОГО ПОДХОДА К ФОРМИРОВАНИЮ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ: АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА

АННОТАЦИЯ

В статье обоснованы процессы формирования экологического сознания и культуры в современном обществе, внедрение новых подходов к формированию экологической культуры, использование современных методов и средств, а

также значение координации действий на глобальном и локальном уровнях. В статье также определены современные механизмы и перспективы развития экологической культуры

Ключевые слова: экологическая культура, формирование, современный подход, мир, окружающая среда, глобализация, экологический кризис, технологии, человек и природа.

KIRISH

Zamonaviy dunyoda ekologik muammolarning globallashuvi ekologik madaniyatni shakllantirishga yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Bugungi kunda atrof-muhit muhofazasi bilan bog'liq masalalar nafaqat alohida davlatlar, balki butun insoniyat oldidagi dolzarb vazifaga aylangan. Iqlim o'zgarishi, bioxilma-xillikning kamayishi, atmosfera havosining ifloslanishi kabi muammolar global miqyosda yechim topishni talab qilmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan maxsus agentligi - UNEP (Atrof-muhit bo'yicha dasturi)ning Oltinchi Global atrof-muhit hisobotida ta'kidlanganidek, "Global ekologik inqiroz insoniyat oldidagi eng jiddiy tahdidlardan biriga aylandi va bu holat ekologik ta'lim tizimini tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda"¹. Bu esa o'z navbatida jamiyatda ekologik madaniyatni shakllantirish masalasini yanada dolzarblashtirmoqda. Ekologik ta'lim va tarbiya tizimini takomillashtirish, aholining barcha qatlamlarida ekologik ong va madaniyatni yuksaltirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biriga aylangan.

Ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonida ta'lim muassasalari, oila, mahalla, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarining o'zaro hamkorligini kuchaytirish, shuningdek, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ekologik ta'lim-tarbiyaning uzluksizligini ta'minlash, nazariya va amaliyot uyg'unligiga erishish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va xalqaro tajribani o'rganish orqali milliy ekologik madaniyatni rivojlantirish zarur.

UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan "Barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan ta'lim" dasturida qayd etilganidek, "Ekologik madaniyat - bu nafaqat ekologik bilimlar tizimi, balki atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatli munosabat, ekologik qadriyatlar va amaliy ko'nikmalar majmuasidir"². Bu ta'rif ekologik madaniyatning

¹ UNEP. Global Environment Outlook 6. Cambridge: Cambridge University Press; 2019. p.127

² UNESCO. Education for Sustainable Development: A Roadmap. Paris: UNESCO; 2020. p.34

ko'p qirrali mohiyatini ochib beradi va uning asosiy komponentlarini aniq ko'rsatib beradi.

Birinchi komponent - ekologik bilimlar tizimi - tabiat qonuniyatlari, ekotizimlar faoliyati, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar, ekologik muammolar va ularning yechimlari haqidagi ilmiy asoslangan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bu bilimlar insonga atrof-muhitdagi jarayonlarni tushunish va ekologik muammolarning mohiyatini anglash imkonini beradi.

Ikkinchi muhim komponent - atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatli munosabat - insonning tabiatga nisbatan ongli va ehtiyotkorona munosabatini, ekologik xavfsizlik tamoyillariga rioya qilishni, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga intilishni nazarda tutadi. Bu munosabat ekologik ong va dunyoqarashning asosini tashkil etadi.

Uchinchi komponent - ekologik qadriyatlar tizimi - tabiatni asrash, bioxilma-xillikni saqlash, atrof-muhit musaffoligini ta'minlash kabi ma'naviy-axloqiy prinsiplarni o'z ichiga oladi. Bu qadriyatlar insonning ekologik faoliyatiga yo'nalish beruvchi ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi.

To'rtinchi komponent - amaliy ko'nikmalar - atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muammolarni hal etishga qaratilgan amaliy faoliyat malakalarini o'z ichiga oladi. Bu ko'nikmalar nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi va ekologik madaniyatning amaliy ifodasi hisoblanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Shunday qilib, ekologik madaniyat - bu murakkab va ko'p qirrali tushuncha bo'lib, u nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, qadriyatlar tizimi va mas'uliyatli munosabatning uyg'unligini talab etadi. Bu komponentlarning har biri o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiradi. Ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonida barcha komponentlarga birdek e'tibor qaratish, ularning muvozanatli rivojlanishini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ekologik madaniyatning bunday keng qamrovli tushunilishi ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo'yadi. Bu vazifalar nafaqat ekologik bilimlarni berish, balki amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, qadriyatlar tizimini rivojlantirish va mas'uliyatli munosabatni tarbiyalashni ham o'z ichiga oladi. Shu sababli, zamonaviy ta'lim tizimida ekologik ta'lim-tarbiya integrallashgan yondashuv asosida, ya'ni nazariya va amaliyot uyg'unligida, qadriyatlar tizimi va mas'uliyatli munosabatni shakllantirish bilan birgalikda olib borilishi zarur.

Bunday yondashuv orqali shakllangan ekologik madaniyat jamiyatning barqaror rivojlanishiga, tabiat va inson o'rtasidagi uyg'un munosabatlarning qaror

topishiga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida global ekologik muammolarni hal etish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va kelajak avlodlar uchun sog‘lom atrof-muhitni saqlab qolish imkonini beradi.

Ispaniya va Ekvadorlik olimlar guruhi tomonidan oliy ta‘limda barqaror rivojlanish uchun ta‘limni takomillashtirishda “birgalikda yaratish (co-creation)” yondashuvini tahlil qilishga bag‘ishlangan tadqiqotlar e‘tiborga molik. Tadqiqot Ekvador universitetlarining ekologiya yo‘nalishi talabalari misolida olib borilgan bo‘lib, zamonaviy ta‘lim tizimida innovatsion yondashuvlarni joriy etish masalalarini o‘rganadi.

Mualliflar UNESCOning yuvoridagi ta‘lim konsepsiyasini amalga oshirishda talabalarining faol ishtirokini ta‘minlash muhimligini ta‘kidlaydilar. Ularning fikricha, talabalarni ta‘lim jarayonining passiv ishtirokchisidan faol yaratuvchisiga aylantirish orqali ta‘lim samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Tadqiqotda 395 nafar bakalavr talabalaridan so‘rovnoma olinib, ishtirok etish, birgalikda yaratish, qoniqish va ishonch kabi to‘rtta ko‘rsatkichni o‘z ichiga olgan strukturaviy tenglama modeli sinovdan o‘tkazilgan. Bu model talabalarining ta‘lim jarayonidagi ishtiroki va uning natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga imkon bergan³.

Natijalar ko‘rsatishicha, talabalarining ishtiroki birgalikda yaratish jarayoniga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi, bu esa o‘z navbatida talabalarining qoniqishi va ishonchini oshiradi. Tadqiqot davomida aniqlangan ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, talabalar o‘quv jarayonida qanchalik faol ishtirok etsalar, ularning ta‘lim sifatidan qoniqish darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi. Mualliflar birgalikda yaratish yondashuvi talabalarni o‘quv jarayonining markaziga qo‘yish orqali ta‘lim sifatini innovatsion tarzda oshirishga yordam berishini ta‘kidlaydilar. Bu yondashuv talabalarga nafaqat bilim oluvchi, balki bilimlarni yaratishda faol ishtirok etuvchi subyekt sifatida qarashni nazarda tutadi.

Tadqiqotda Ekvador oliy ta‘lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlari, jumladan “Farovon turmush milliy rejasi” (Plan Nacional del Buen Vivir) doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar ham tahlil qilingan. Tadqiqotchilar Ekvador tajribasi misolida rivojlanayotgan mamlakatlarda ta‘lim tizimini modernizatsiya qilishning muhim jihatlarini ochib beradilar. Tadqiqot natijalari rivojlanayotgan mamlakatlarda barqaror rivojlanish uchun ta‘limni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi va boshqa mamlakatlar uchun ham foydali tajriba hisoblanadi.

³ Perello-Marín MR, Ribes-Giner G, Pantoja Díaz O. Enhancing Education for Sustainable Development in Environmental University Programmes: A Co-Creation Approach. Sustainability. 2018;10(1):158. doi:10.3390/su10010158

Umuman olganda, UNESCO ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalarga ko'ra, ekologik madaniyatni shakllantirishda quyidagi tamoyillarga tayanish lozim. Bu tamoyillar zamonaviy jamiyatda ekologik ta'lim-tarbiyani rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi⁴.

Birinchidan, umumta'lim maktablarida ekologik ta'limni kuchaytirish zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biriga aylanmoqda. Bu jarayonda birinchi navbatda o'quv dasturlariga ekologik komponentlarni integratsiya qilish zarur bo'lib, bunda nafaqat tabiiy fanlar, balki barcha o'quv fanlari doirasida ekologik masalalarni yoritish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, adabiyot darslarida tabiat tasviri, tarix darslarida insoniyat taraqqiyoti va tabiat o'rtasidagi munosabatlar, geografiya darslarida ekologik muammolar kabi mavzularni chuqur o'rganish mumkin.

O'quvchilarda ekologik ong va mas'uliyatni shakllantirish orqali ularda tabiatga nisbatan g'amxo'r munosabatni tarbiyalash alohida e'tibor talab etadi. Buning uchun o'quvchilarga nafaqat nazariy bilimlar berish, balki ularda amaliy ko'nikmalarni ham shakllantirish lozim. Shu maqsadda maktablarda turli amaliy ekologik loyihalarni amalga oshirish, jumladan maktab hududini ko'kalamzorlashtirish, chiqindilarni saralash, energiyani tejash kabi faoliyatlarni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq. Bunday amaliy faoliyat o'quvchilarda ekologik mas'uliyatni shakllantirishga yordam beradi. Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha maktab tadbirlarini tashkil etish, turli ekologik aksiyalar va tanlovlar o'tkazish orqali o'quvchilarning ekologik faolligini oshirish mumkin. Bunday tadbirlar o'quvchilarga o'z bilim va ko'nikmalarini amalda qo'llash, shuningdek jamoa bo'lib ishlash imkoniyatini beradi.

Ekologik ta'lim samaradorligini oshirish uchun zamonaviy o'quv materiallarini yaratish, interaktiv va multimedia resurslaridan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Bu o'quv jarayonini qiziqarli va samarali qilish bilan birga, o'quvchilarning ekologik bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. Shunday qilib, umumta'lim maktablarida ekologik ta'limni kuchaytirish kompleks yondashuvni talab etadigan jarayon bo'lib, u nazariy bilimlar berish, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Ikkinchidan oliy ta'lim muassasalarida ekologik yo'nalishlarni rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu borada eng muhim masala ekologiya va atrof-muhit muhofazasi bo'yicha yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash bo'lib, bunda nazariy bilimlar bilan birga amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Bunday mutaxassislar

⁴ UNESCO. Education for Sustainable Development: A Roadmap. Paris: UNESCO; 2020

ekologik muammolarni aniqlash, tahlil qilish va ularni hal etish uchun zamonaviy usul va vositalardan foydalana olish qobiliyatiga ega bo'lishlari kerak.

Shu bilan birga, barcha ta'lim yo'nalishlarida ekologik fanlarni joriy etish va har bir kasbiy faoliyat bilan bog'liq ekologik masalalarni chuqur o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa kelajakdagi mutaxassislarning o'z kasbiy faoliyatlarida ekologik omillarni inobatga olgan holda qarorlar qabul qilishlariga yordam beradi. Talabalarning ekologik loyihalarda faol ishtirokini ta'minlash va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash orqali ularda amaliy tajriba va ko'nikmalarni shakllantirish mumkin. Ushbu loyihalar talabalarga nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash, jamoada ishlash va muammolarni hal etish tajribasini beradi.

Ekologik tadqiqotlarni rag'batlantirish va ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyatini kuchaytirish orqali yangi ekologik yechimlar va innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi. Bu jarayonda xalqaro ekologik dasturlarda ishtirok etish va xorijiy hamkorlar bilan aloqalarni mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi. Xalqaro hamkorlik nafaqat ilg'or xorijiy tajribani o'rganish, balki global ekologik muammolarni hal etishda hamkorlikda faoliyat olib borish imkonini beradi. Bunday kompleks yondashuv oliy ta'lim muassasalarida ekologik ta'limning samaradorligini oshirish va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash imkonini beradi.

Uchinchi, kattalar uchun uzluksiz ekologik ta'lim tizimini yaratish muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Bu tizim bir necha muhim yo'nalishlarni o'z ichiga oladi va ularning har biri o'ziga xos ahamiyatga ega.

Birinchi yo'nalish korxona va tashkilotlarda ekologik ta'limni rivojlantirishga qaratilgan. Bunda xodimlar uchun maxsus ekologik o'quv kurslarini tashkil etish, ularning ekologik savodxonligini oshirish, ish jarayonida ekologik masalalarga e'tibor qaratish ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali korxonalarda ekologik madaniyatni shakllantirish va atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni rivojlantirish mumkin.

Ikkinchi muhim yo'nalish jamoat ekologik tashkilotlari bilan hamkorlikni kuchaytirishdir. Bunda ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash, to'plangan tajribani o'rganish va ommalashtirish, birgalikdagi loyihalarni amalga oshirish orqali ekologik ta'lim samaradorligini oshirish mumkin. Jamoat tashkilotlari aholi bilan bevosita muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'lganligi sababli, ular orqali ekologik bilimlarni keng tarqatish mumkin.

Uchinchi yo'nalish ommaviy axborot vositalari orqali ekologik ma'rifatni targ'ib qilishga qaratilgan. Bunda maxsus tele va radio ko'rsatuvlar, gazeta va jurnallarda doimiy ruknlar tashkil etish, ijtimoiy tarmoqlarda ekologik mavzularni

yoritish orqali aholining keng qatlamlariga ekologik bilimlarni yetkazish mumkin. Bu yoʻnalish orqali ekologik madaniyatni ommaviy darajada shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

Toʻrtinchi yoʻnalish mahalliy hamjamiyatlar darajasida ekologik faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan. Bunda turli ekologik tadbirlarni tashkil etish, aholini atrof-muhitni muhofaza qilish faoliyatiga jalb etish, mahalliy ekologik muammolarni hal etishda jamoatchilik ishtirokini taʼminlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali aholida ekologik masʼuliyat hissini shakllantirish va ekologik muammolarni hal etishda faol ishtirok etish koʻnikmalarini rivojlantirish mumkin.

Bu tamoyillar ekologik taʼlimni tizimli va uzluksiz ravishda rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish va jamiyatda ekologik madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Ularning izchil va muntazam amalga oshirilishi nafaqat barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, balki kelajak avlodlar uchun sogʻlom va xavfsiz atrof-muhitni saqlab qolish imkonini beradi. Bunday yondashuv ekologik taʼlimning barcha bosqichlarini qamrab olib, jamiyatning har bir aʼzosida ekologik madaniyat va masʼuliyatni shakllantirishga yordam beradi.

Shu nuqtayi nazarjan, “Hozirgi vaqtda xalqaro hamjamiyat ekologik taʼlim-tarbiyaning barcha yoʻnalishlarini ekologiyalashtirishga katta eʼtibor bermoqda, yaʼni ilmiy adabiyotlarda, xalqaro rasmiy hujjatlarda global ekologik taʼlim va tarbiya yaxlit tizimini shakllantirish masalasi kun tartibiga qoʻyilmoqda. Hatto, bu muammo nufuzli xalqaro invayronmentalizm harakati dasturining markaziy vazifalaridan biri sifatida belgilangan”⁵, deb yozadi Sh.Rasulova.

Ekologik madaniyatni shakllantirishga zamonaviy xorij tajribasi haqida gap ketganda, Osiyo va Yevropa mamlakatlarining ilgʻor tajribalarini oʻrganish va tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada rivojlangan davlatlarning yutuqlarini chuqur oʻrganish va ularning samarali jihatlarini amaliyotga tatbiq etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Osiyo mintaqasida, ayniqsa, Yaponiyaning bu boradagi yutuqlari eʼtiborga loyiq boʻlib, ularning ekologik madaniyatni shakllantirish borasidagi tizimli yondashuvi namuna boʻla oladi. Yaponiya tajribasining oʻziga xos jihati shundaki, bu yerda ekologik taʼlim va tarbiya oila, taʼlim muassasalari va jamiyat hamkorligida amalga oshiriladi. Bunday yondashuv ekologik madaniyatni kompleks shakllantirish imkonini beradi.

Yevropa mamlakatlari orasida esa Germaniya va Skandinaviya davlatlarining tajribasi alohida eʼtiborga molik, chunki bu mamlakatlar ekologik taʼlim va tarbiya

⁵ Rasulova Sh. Shaxs ekologik ongining tabiatga estetik munosabatini shakllantirishdagi roli. Falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -T.: 2012. 83-b.

sohasida yuqori natijalarga erishgan. Germaniya va Skandinaviya davlatlarida ekologik madaniyat nafaqat ta'lim tizimida, balki jamiyatning barcha sohalarida ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Ularning tajribasida ekologik ong va mas'uliyat yoshlikdan shakllantiriladi.

Bu davlatlarning tajribasini o'rganish va ulardan samarali foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki ularning ekologik ta'lim va tarbiya sohasidagi yutuqlari ko'p yillik izlanishlar va amaliy tajribalar natijasida shakllangan. Bu tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirib, milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda qo'llash ekologik madaniyatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yaponiyada ekologik ta'lim 1970-yildan boshlab rivojlana boshlagan. Dastlab "Kankyō Kyōiku (Environmental Education)" atamasi paydo bo'lgan va u asosan atrof-muhit ifloslanishi muammolarini o'rganishga qaratilgan edi. Bu davrda ekologik ta'lim asosan fan ta'limi doirasida amalga oshirilgan bo'lib, keyinchalik u kengroq ma'noda, ya'ni inson va atrof-muhit munosabatlarini o'rganish, atrof-muhit sifatini yaxshilash kabi masalalarni qamrab olgan. 1980-yillarda ekologik ta'lim biroz susaygan bo'lsa-da, 1990-yillarga kelib global ekologik muammolar tufayli yana dolzarb ahamiyat kasb eta boshlagan.

Yaponiyada ekologik ta'lim uch asosiy tayanch nuqtaga asoslanadi. Tadqiqotchi Yayoi Kodamaning ta'kidlashicha, "Birinchidan, oilada ekologik tarbiya ilk yoshdan boshlanadi va kundalik hayot tarziga singdiriladi. Bu jarayonda bolalarda tabiatga nisbatan g'amxo'r munosabat shakllantiriladi va ekologik qadriyatlar oila muhitida o'zlashtiriladi. Ikkinchidan, ta'lim muassasalarida ekologik bilimlar tizimli ravishda beriladi, bunda nazariy va amaliy bilimlar uyg'unligi ta'minlanadi. Uchinchidan, jamiyat doirasida ekologik faoliyat rag'batlantiriladi, bu esa ekologik madaniyatning keng jamoatchilik orasida shakllanishiga xizmat qiladi"⁶.

Yaponiyada UNESCO Associated Schools Project Network (ASPNet) doirasida 1000 dan ortiq maktab faoliyat yuritadi. Bu maktablarning 76.9% ekologik ta'limni ustuvor yo'nalish sifatida belgilagan. UNESCO maktablari nafaqat ekologik ta'lim, balki xalqaro hamkorlik, madaniyatlararo muloqot va barqaror rivojlanish ta'limi sohasida ham faol ish olib boradi. Bu maktablarda o'quvchilar global fuqarolik va ekologik mas'uliyat tuyg'ularini shakllantirish imkoniga ega bo'ladilar.

Kodamaning tadqiqotida Omuta shahri misolida ekologik ta'lim amaliyotining samarali modeli keltirilgan. Bu yerda barcha davlat maktablari UNESCO tarmog'iga a'zo bo'lib, maxsus "Omuta ESD Consortium" orqali 31 ta tashkilot bilan hamkorlik o'rnatilgan. Bu konsorsium orqali maktablar turli ijtimoiy institutlar, korxonalar,

⁶ Kodama Yayoi. Environmental education for sustainable development of unesco associated schools project network in Japan// Journal of Sustainable Development Education and Research | Vol. 3, No.1, 2019.

nodavlat tashkilotlar va universitetlar bilan samarali hamkorlik qilish imkoniga ega bo'lmog'da. Bunday hamkorlik ekologik ta'limning amaliy ahamiyatini oshirishga va o'quvchilarda real hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga yordam bermog'da.

Maktablarda "ESD calendar" kabi innovatsion usullar qo'llanilmoqda. Bu kalendar orqali barcha fanlar doirasida ekologik ta'lim integratsiyasi ta'minlanadi. ESD kalendari har bir sinf uchun alohida ishlab chiqiladi va unda barcha o'quv fanlari doirasida ekologik ta'lim mavzulari o'zaro bog'langan holda rejalashtiriladi. Bu esa o'qituvchilarga ekologik ta'limni tizimli ravishda amalga oshirish imkonini beradi.

Germaniya ekologik ta'lim va madaniyatni rivojlantirish borasida boy tajribaga ega davlatlardan biri hisoblanadi. Bu mamlakat o'zining ekologik siyosati va ta'lim tizimi bilan boshqa davlatlar uchun namuna bo'lib kelmoqda. Mamlakat uzoq yillar davomida atrof-muhit muhofazasi va ekologik ta'lim sohasida izchil islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Bu islohotlar nafaqat ta'lim tizimini, balki jamiyatning barcha qatlamlarini qamrab olgan.

So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mamlakatda ekologik madaniyatni yuksaltirishga kompleks yondashuv amalga oshirilib, bu jarayonda barcha ta'lim bosqichlari, davlat va nodavlat tashkilotlar faol ishtirok etmoqda⁷. Bu yondashuv ta'lim muassasalari, davlat tashkilotlari va jamoat birlashmalarining o'zaro hamkorligiga asoslangan bo'lib, ekologik madaniyatni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu hamkorlik doirasida turli xil dasturlar, loyihalar va tadbirlar muntazam ravishda amalga oshirilib kelinmoqda [1].

Oliy ta'lim muassasalarida ekologik madaniyatni yuksaltirishning muhim jihatlaridan biri - bu "yashil kampus" konsepsiyasini joriy etishdir. Bu konsepsiya universitet hududlarini nafaqat ta'lim maskani, balki ekologik tizimning muhim qismiga aylantirishni nazarda tutadi. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, universitet kampuslari, ayniqsa shahar muhitida, o'simlik va hayvonot dunyosi uchun muhim yashash makoni bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Bu borada universitetlar hududida maxsus bog'lar, o'simliklar kolleksiyalari yaratish, bioxilma-xillikni saqlash va ko'paytirish bo'yicha keng ko'lamli loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, botanika bog'lari hasharotlar va kichik hayvonlar uchun yashash muhiti yaratish bilan birga, talabalarning ekologik ta'limida ham muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, universitet kampuslaridagi o'simliklar xilma-xilligi shahar madaniy xizmatlar hududlarini yaxshilash orqali

⁷ Yerokhin S.M, Lin Feuer Y.S, Sassen R. Biodiversity preservation in German higher education institutions: existing approaches, challenges and future developments. International Journal of Sustainability in Higher Education. 2023;24(12):608-625.

estetik go‘zallik yaratish va talabalarning ruhiy salomatligini yaxshilashga yordam beradi.

Yashil kampus konsepsiyasi doirasida amalga oshiriladigan asosiy yo‘nalishlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi⁸:

- Maxsus qo‘riqlanadigan hududlar va botanika bog‘larini tashkil etish
- Mahalliy o‘simlik turlarini ekish va parvarishlash
- Hasharotlar va qushlar uchun sun‘iy uyalarni o‘rnatish
- Qurigan daraxtlarni saqlab qolish orqali hasharotlar uchun tabiiy yashash joylarini yaratish
- Yashil devorlar va tomlarni qurish

Bunday loyihalar nafaqat bioxilma-xillikni saqlash va ko‘paytirishga, balki qator ekologik afzalliklarga ham ega. Jumladan, yashil maydonlar shahar issiqlik orolini yumshatish, havo ifloslanishini kamaytirish, suv boshqaruvini yaxshilash kabi muhim ekologik funksiyalarni bajaradi. Shuningdek, kampus hududidagi yashil maydonlar talabalar va xodimlar uchun dam olish, o‘qish va ijtimoiy muloqot uchun qulay muhit yaratadi.

Germaniya tajribasida rahbariyat va o‘qituvchilarning ekologik madaniyatni rivojlantirishdagi faol ishtiroki alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, ta‘lim muassasasi rahbariyatining qo‘llab-quvvatlashi ekologik loyihalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Tadqiqotchi H.Kurland va boshqalar ta‘kidlaganidek: “Ta‘lim muassasasi rahbarining boshqaruv uslubi va strategik ko‘rinishi tashkiliy o‘qitish va rivojlanishga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Rahbarning aniq maqsad va strategiyasi bo‘lmasa, har qanday tashabbus muvaffaqiyatsizlikka uchrashi mumkin”⁹.

Rahbariyatning ekologik madaniyatni rivojlantirishdagi roli bir qator muhim yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, strategik rejalashtirish va maqsadlarni belgilash orqali ekologik ta‘lim konsepsiyasini ishlab chiqish, uzoq muddatli rejalar tuzish, aniq maqsad va vazifalarni belgilash hamda natijalarni baholash mezonlarini ishlab chiqish amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, resurslarni samarali taqsimlash orqali moliyaviy mablag‘larni ajratish, zarur jihozlar bilan ta‘minlash, o‘quv materiallarini yaratish va infratuzilmani rivojlantirish ta‘minlanadi.

Uchinchidan, xodimlarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish doirasida o‘qituvchilarning malakasini oshirish, innovatsion g‘oyalarni rag‘batlantirish, tajriba

⁸ Manso M, Castro-Gomes J. Green wall systems: A review of their characteristics. *Renew Sustain Energy Rev.* 2015;41:863-871.

⁹ Kurland H, Peretz H, Hertz-Lazarowitz R. Leadership style and organizational learning: The mediate effect of school vision.// *Journal of Educational Administration.* 2010;48(1):7-30.

almashish imkoniyatlarini yaratish va motivatsion mexanizmlarni joriy etish amalga oshiriladi.

To'rtinchidan, tashkiliy madaniyatni shakllantirish orqali ekologik qadriyatlarni singdirish, namunali yetakchilik qilish, jamoaviy mas'uliyatni oshirish va ijobiy muhitni yaratish ta'minlanadi. Ya'ni "Rahbarning boshqaruv uslubi nafaqat tashkiliy o'qitishga, balki umumiy tashkiliy madaniyatga ham ta'sir ko'rsatadi. Samarali rahbar o'z jamoasini yangi g'oyalar va yondashuvlarni qabul qilishga ilhomlantira oladi".

Beshinchidan, hamkorlik aloqalarini o'rnatish orqali mahalliy hamjamiyat bilan aloqalar, xalqaro hamkorlik, tajriba almashish va qo'shma loyihalarni amalga oshirish yo'lga qo'yiladi.

Oltinchidan, monitoring va baholash tizimini joriy etish orqali muntazam monitoring, natijalarni tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va takomillashtirish choralari ko'rish amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, Germaniya ekologik madaniyatni yuksaltirish jarayonida ayrim muammolar ham kuzatilmoqda. Bular qatoriga moliyaviy resurslar yetishmasligi, talabalar almashinuvi yuqoriligi tufayli loyihalarning uzluksizligini ta'minlash qiyinligi kabi masalalarni kiritish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. United Nations Environment Programme (UNEP). *Global Environment Outlook – GEO-6: Healthy Planet, Healthy People*. Nairobi: UNEP, 2019.
2. UNESCO. *Education for Sustainable Development: A Roadmap*. Paris: UNESCO Publishing, 2020.
3. UNESCO. *Learning for the Future: Competences in Education for Sustainable Development*. Paris: UNESCO, 2017.
4. Kodama, Y. Environmental Education in Japan: Development and Practice within UNESCO ASPNet Schools // *Journal of Education for Sustainable Development*. – 2018.
5. Kurland, H., Peretz, H., Hertz-Lazarowitz, R. Leadership Style and Organizational Learning: The Mediating Role of School Vision // *Educational Management Administration & Leadership*. – 2010.
6. Rasuleva, Sh. Global ekologik ta'lim tizimini shakllantirish masalalari // *Ijtimoiy-gumanitar fanlar axboroti*. – 2021.
7. Plan Nacional del Buen Vivir. Gobierno del Ecuador. Quito, 2017.
8. European Commission. *Education and Training for Sustainable Development in Europe*. Brussels, 2019.

9. Bundesministerium für Bildung und Forschung (BMBF). *Nachhaltigkeit in der Hochschulbildung*. Berlin, 2021.
10. United Nations. *Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development*. New York, 2015.